



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

**2026-YIL / IYUN/6-SON,
V-QISM**



INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE



ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, iyun.
V-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyevich, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xalikov Suyun Ravshanovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khalikov Suyun Ravshanovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Rustamov Ilhomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Raximovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy
jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va
taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi
336/3-sonli qarori bilan
ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

KORPORATIV BOSHQARUVDA ESG TAMOIYLLARINI JORIY ETISHNING IQTISODIY TAHLILI.....	12
I. R. Berdikulova	
TEKSTIL SANOATIDA SUV ISTE'MOLI VA QAYTA ISHLASH ULUSHI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK: 20 DAVLAT MISOLIDA KORRELYATSIYA VA K-MEANS KLASTER TAHLILI.....	16
Zayniyev Diyorbek Zokir o'g'li	
Turobova Hulkar Rustamovna	
O'ZBEKISTONDA BIZNES BIRLASHUVLARINI HISOBGA OLISHNI MHXS (IFRS) 3 ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	24
Davletov Ikrom Raximberganovich	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA TOVAR-MODDIY ZAXIRALAR AUDITINI TASHKIL QILISH VA O'TKAZISH TARTIBI.....	33
Jo'rayev Dilshod Xudoyqulovich	
СОВРЕМЕННЫЕ ПОДХОДЫ К СОВЕРШЕНСТВОВАНИЮ ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО МЕХАНИЗМА УПРАВЛЕНИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКИМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ	38
Абдуллаева М.Б.	
AGROSANOAT MAJMUASIDA INTEGRATSION TUZILMALARNING ISTIQBOLLI SHAKLLARINING NAZARIY ASOSLARI.....	44
Murodov Sherzodbek Murod o'g'li	
RESPUBLIKADA YASHIL IQTISODIYOTNI RIVOJLANTIRISHNING BOZOR MEXANIZMI.....	51
Kalandarova Elnura Muzaffar qizi	
TIJORAT BANKLARI TOMONIDAN MAHALLALARDA KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHGA KO'MAKLASHISH.....	55
Niyozov Zuxur Davronovich	
Yarlaqabov Faxriddin Baxodir o'g'li	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ОТЧЕТА О ФИНАНСОВОМ ПОЛОЖЕНИИ КОМПАНИИ В СООТВЕТСТВИИ С ТРЕБОВАНИЯМИ МСФО	58
Худойкулова Дилора Дилмуродовна	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSIYALARI TARKIBI VA ULARDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINING IQTISODIY TAHLILI.....	64
Karimova Saodatxon Ulug'bek qizi	
XALQARO MOLIVAVIY HISOBOT STANDARTLARIGA MUVOFIQ JORIY AKTIVLARNI HISOBGA OLISHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	71
Mavlyanova Dilobar Maxkamovna	
DAVLAT TOMONIDAN TURIZM SOHASINI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	77
Karimova Dilafruz Sadridin qizi	
МЕТОДЫ АНАЛИЗА ЦИФРОВИЗАЦИИ В РЕГИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКЕ.....	82
Ахмедова(Жабборова) Нилуфар Икболжон кизи	
AHOLI ZICH JOYLASHGAN HUDUDLARDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOY-IQTISODIY OMILLARI VA XORIJIY TAJRIBA TAHLILI	89
Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
Nematjonova Risolatxon Dilshodbek qizi	
JANUBIY KOREYA TAJRIBASIDA CHIQINDILARNI BOSHQARISHDA EPR TIZIMI VA RAQAMLI YECHIMLARINING O'RNI	94
Otarbayev Zamir Zairovich	



MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS	SANOAT SALOHİYATI SAMARADORLIGINI INVESTISIYALAR ASOSIDA OSHIRISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI	100
	Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich	
	ЦИФРОВЫЕ НАВЫКИ КАК ФАКТОР КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ЖЕНСКИХ КАДРОВ НА ПРОМЫШЛЕННЫХ ПРЕДПРИЯТИЯХ УЗБЕКИСТАНА.....	107
	Дониёрова Зухрабону Алишер кизи	
	TURIZM SUG'URTASI VA UNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI.....	113
	Хо'jamov Akbar Bahriddinovich	
	KELAJAKDAGI GLOBAL VA MINTAQAVIY IQLIM O'ZGARISHI HAMDA YASHIL IQTISODIYOTGA O'TISH ZARURIYATI.....	118
	Djumayev Askar Xaydarovich	
	SAMARQAND VILOYATI UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA RESURSLARNI BOSHQARISH SAMARADORLIGI.....	123
	Erdonov Muhammadamin Erdon o'g'li	
	Qahhorova Nargiza Qahramonovna	
	Rafiqjonov Damir Raxim o'g'li	
	Jamilov Firdavs Otabek o'g'li	
	ПУТИ РАСШИРЕНИЯ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ ЦИФРОВЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В УПРАВЛЕНИИ БАНКОВСКОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬЮ	129
	Норкулов Хабибулло	
	Абдурасулова Шахзода	
	Бахриддинов Дилшодбек	
	NATIV BRENDING VOSITASI SIFATIDA UGC VA EGC: GLOBAL TENDENSIYALAR VA O'ZBEKISTON BOZORIGA MOSLASHUV	135
	Yuldasheva Mahliyo Baxtiyor qizi	
SOLIQ TO'LOVCHILARGA XIZMAT KO'RSATISHDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI SOLIQ MA'MURCHILIGINING SAMARADORLIK KO'RSATKICHLARI TAHLILI	138	
Shamsiyev O'ktam Sayfitdinovich		
НАУЧНЫЕ ПОДХОДЫ И ПРИНЦИПЫ ФОРМИРОВАНИЯ ЦИФРОВОГО МОДЕЛИРОВАНИЯ ПРИ УПРАВЛЕНИИ БИЗНЕС-ПРОЦЕССАМИ	147	
Джуманов А.А.		
BANK SEKTORIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR VA XARAJAT SAMARADORLIGI: XALQARO TAJRIBA ASOSIDA EKONOMETRIK BAHOLASH.....	157	
Masharipova Durdona Ulug'bekovna		
РАЗВИТИЕ ИНСТРУМЕНТОВ ЦИФРОВОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ПРИНЯТИЯ РЕШЕНИЙ.....	164	
Джуманов А.А.		
DAVLAT XARIDLARIDA SUN'IY INTELLEKTGA ASOSLANGAN NARXLAR MODULINI JORIY ETISH: KORRUPSIYAGA QARSHI KOMPLAYENS, HISOBDORLIK VA RAQOBATNI KUCHAYTIRISH YO'NALISHLARI.....	174	
Rahmanov Furqat Temirovich		
АНАЛИЗ НА ОСНОВЕ МОДЕЛИ АЛЬТМАНА ПРИ ОЦЕНКЕ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	179	
Ибрагимов Гайратжон Артикович		
TIJORAT BANKLARIDA RISKLARNI BOSHQARISHNINZ ZAMONAVIY MODELLARI VA KOMPLAYENSNAZORAT TIZIMINI RIVOJLANTIRISH	186	
Fayziyev Sherzod Djunaydilloyevich		
SUN'IY INTELLEKTNING MEHNAT UNUMDORLIGI VA MOBILIGIGA TA'SIRI.....	192	
Shakarov Zafar Gafforovich		



URGUT ERKIN IQTISODIY ZONASIDA SANOAT TARMOQLARINI KLASTERLASH SAMARADORLIGINING TAHLILI	198
Boboqulov Sanjar Baxronkulovich	
Qurbonov Tolmasjon Namoz o'g'li	
Uzoqov Rafiq O'lmas o'g'li	
INFRATUZILMA INVESTITSİYALARINING AHOLI FAROVONLIGIGA TA'SIRINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI VA HUDUDIY XUSUSIYATLARI	204
Jiyanov Laziz Najimovich	
«ЗЕЛЁНОЕ» ВОДОСНАБЖЕНИЕ В ЗАСУШЛИВЫХ РЕГИОНАХ: МЕЖДУНАРОДНЫЙ ОПЫТ И ПЕРСПЕКТИВЫ ДЛЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	210
Курбанова Дилфуза Махсудовна	
TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	217
Karimova Feruza Xamidullayevna	
PAXTACHILIKDA ZAMONAVIY AGROTEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISH VA EKOLOGIK MUVOZANAT TA'MINLASHNING IQTISODIY MEXANIZMI.....	221
Ishniyazov Zoxid Normamatovich	
FUQAROLAR MUHOJIRLARI MA'LUMOTLARI ASOSIDA HUDUDLARNING IJTIMOIIYIQTISODIY RIVOJLANISH DARAJASINI BAHOLASHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI	226
Inomov Daniyar Valijonovich	
O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARIDA QIMMATLI QOG'OZLAR BILAN OPERATSIYALARNI TAKOMILLASHTIRISH: HOLAT TAHLILI VA TAVSIYALAR.....	232
Niyozov Zuhur Davronovich	
Xolmurotov Sardor	
Haydaraliyev Avaz	
YAQIN SHARQDA TURIZM EKSPORTI STRATEGIYALARI VA ULARNI O'ZBEKISTONDA QO'LLASH IMKONIYATLARI: BAA VA SAUDIYA ARABISTONI TAJRIBASI ASOSIDA QIYOSIY TAHLIL	238
Tolibova Aziza To'lqin qizi	
BANKLARDA IJARA MUOMALALARINI TARTIBGA SOLUVCHI ME'YORIY - HUQUQIY ASOSLAR VA XALQARO STANDARTLAR.....	243
Sativaldiyeva Gulchexra Xudayberdiyevna	
QURILISH MATERIALLARI KORXONALARIDA STRATEGIK RISK-MENEJMENT TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH	247
Masharipova Sevara	
TO'QIMACHILIK KORXONALARIDA TASHQI IQTISODIY FAOLIYATNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	251
Ergashev Jamshid Jamoliddinovich	
Muhammadjonova Iroda Bahodir qizi	
BALIQCILIK TARMOG'INI INTENSIV RIVOJLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	256
Iskandar Yunusov	
YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOIIY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI	262
Mirzanov Berdak Joldasbeovich	



YASHIL IQTISODIYOT SHAROITIDA BARQAROR QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI: AGROEKOLOGIK VA IJTIMOY-IQTISODIY YONDASHUVLAR INTEGRATSIYASI

Mirzanov Berdak Joldasbeovich

Qoraqalpoq davlat universiteti

“Buxgalteriya hisobi va audit” kafedrasi professori, (PhD)

e-mail: bmirzanov@mail.ru

tel: +99890 658 78 20

ORCID: 0000-0001-8444-7616

Annotatsiya. Mazkur maqolada yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslari tadqiq etilgan. Tadqiqotda agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning mazmuni hamda ularning o'zaro bog'liqligi tahlil qilingan. Mavjud ilmiy qarashlar asosida ushbu yondashuvlarning afzalliklari va cheklovlari aniqlangan. Barqaror qishloq xo'jaligini baholashda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni kompleks hisobga olish zarurligi asoslab berilgan. Tadqiqot natijasida agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni integratsiyalashga asoslangan konseptual model taklif etilgan. Ushbu model barqarorlikni baholash, qarorlar qabul qilish va rivojlanish strategiyalarini shakllantirishning nazariy asoslarini takomillashtirishga xizmat qiladi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishga qaratilgan integratsiyalashgan metodologik yondashuv ishlab chiqilgani bilan izohlanadi.

Kalit so'zlar: yashil iqtisodiyot, barqaror qishloq xo'jaligi, agroekologik yondashuv, ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv, integratsiya mexanizmi, ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik, ijtimoiy inklyuzivlik, barqaror rivojlanish, konseptual model.

Abstract. This article investigates the theoretical and methodological foundations of sustainable agricultural development within the framework of a green economy. The study analyses the essence of agroecological and socio-economic approaches and examines their interrelationships. Based on a review of scientific literature, the strengths and limitations of existing approaches are identified. The necessity of integrating environmental, economic, and social dimensions in assessing agricultural sustainability is substantiated. As a result, a conceptual model integrating agroecological and socio-economic approaches is proposed. The model contributes to improving the theoretical basis for sustainability assessment and decision-making processes. The scientific novelty of the study lies in the development of an integrated methodological framework for sustainable agricultural development under green economy conditions.

Keywords: green economy, sustainable agriculture, agroecological approach, socio-economic approach, integration mechanism, environmental sustainability, economic efficiency, social inclusiveness, sustainable development, conceptual model.

Аннотация. В статье исследованы теоретико-методологические основы развития устойчивого сельского хозяйства в условиях зелёной экономики. Проанализированы сущность агроэкологического и социально-экономического подходов, а также их взаимосвязь. На основе обзора научной литературы выявлены преимущества и ограничения существующих подходов. Обоснована необходимость комплексного учёта экологических, экономических и социальных факторов при оценке устойчивого развития сельского хозяйства. В результате исследования предложена концептуальная модель интеграции агроэкологического и социально-экономического подходов. Разработанная модель позволяет совершенствовать методологические основы оценки устойчивости и принятия управленческих решений. Научная новизна исследования заключается в разработке интегрированного методологического подхода к обеспечению устойчивого развития сельского хозяйства в условиях зелёной экономики.

Ключевые слова: зелёная экономика, устойчивое сельское хозяйство, агроэкологический подход, социально-экономический подход, механизм интеграции, экологическая устойчивость, экономическая эффективность, социальная инклюзивность, устойчивое развитие, концептуальная модель.



KIRISH

Global iqlim o'zgarishi, tabiiy resurslar tanqisligi hamda atrof-muhit degradatsiyasi sharoitida qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish masalasi jahon miqyosidagi dolzarb ilmiy-amaliy muammolardan biriga aylanmoqda. FAO ma'lumotlariga ko'ra, agroozuq-ovqat tizimlari global issiqxona gazlari chiqindilarining salmoqli qismini shakllantirib, ekologik barqarorlikka sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda [7]. Shu bilan birga, yer va suv resurslarining degradatsiyasi agrar ishlab chiqarish samaradorligiga salbiy ta'sir etib, qishloq xo'jaligida yangi rivojlanish yondashuvlarini qo'llash zaruratini kuchaytirmoqda.

Mazkur masalalarni samarali hal etishda yashil iqtisodiyot konsepsiyasi muhim nazariy va amaliy asos sifatida qaraladi. Ushbu konsepsiyaga ko'ra, iqtisodiy o'sish ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlik bilan uyg'un holda ta'minlanishi lozim [3; 8]. Shu sababli qishloq xo'jaligida resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish, bioxilma-xillikni saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish hamda ekologik xavfsiz mahsulotlar ishlab chiqarish masalalari yashil iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishlari sifatida e'tirof etilmoqda [5; 6].

Xalqaro tadqiqotlar barqaror qishloq xo'jaligiga o'tish nafaqat ekologik, balki iqtisodiy zarurat ekanligini ko'rsatmoqda. Jahon banki hisob-kitoblariga ko'ra, agroozuq-ovqat tizimlarini barqaror rivojlanish yo'liga o'tkazish uchun katta hajmdagi investitsiyalar talab etiladi [9]. O'zbekiston Respublikasida ham yashil iqtisodiyotga o'tish bo'yicha qabul qilingan strategik hujjatlar qishloq xo'jaligida suv va yer resurslaridan samarali foydalanish, ekologik xavfsizlikni ta'minlash hamda innovatsion texnologiyalarni keng joriy etishga qaratilgan [1; 2].

Biroq ilmiy adabiyotlarda barqaror qishloq xo'jaligini baholashda agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar ko'pincha alohida tadqiq etilib, ularning o'zaro integratsiyasi yetarli darajada yoritilmagan [5; 6]. Natijada qishloq xo'jaligining ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini kompleks baholash imkonini beruvchi yagona nazariy-metodologik yondashuvni shakllantirish zarurati yuzaga kelmoqda.

Shundan kelib chiqib, mazkur maqolaning maqsadi yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini tadqiq etish, agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning o'zaro bog'liqligini aniqlash hamda ularning integratsiyalashgan konseptual modelini ishlab chiqishdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Yashil iqtisodiyot va barqaror qishloq xo'jaligi masalalari iqtisodiyot, ekologiya va agrar fanlar kesishmasida shakllangan muhim ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Ushbu yo'nalishdagi dastlabki nazariy qarashlar D. Pearce, A. Markandya va E. Barbier tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, ular iqtisodiy o'sishning ekologik cheklovlar hamda tabiiy resurslarning qayta tiklanish imkoniyatlari bilan uyg'unlashuvi zarurligini asoslab berganlar [3]. Keyinchalik ushbu g'oyalar UNEP tomonidan rivojlantirilib, yashil iqtisodiyot inson farovonligini oshirish, ijtimoiy tenglikni ta'minlash va ekologik xavflarni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy tizim sifatida talqin etilgan [10].

Barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning metodologik asoslari barqaror rivojlanish konsepsiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Jahon atrof-muhit va rivojlanish komissiyasining "Our Common Future" hisobotida barqaror rivojlanish hozirgi avlod ehtiyojlarini kelajak avlod manfaatlariga zarar yetkazmagan holda qondirish jarayoni sifatida izohlangan [11]. Mazkur yondashuv keyinchalik BMTning Barqaror rivojlanish maqsadlari (SDGs) orqali yanada takomillashtirilib, qishloq xo'jaligida iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy farovonlikning o'zaro uyg'unligini ta'minlash ustuvor vazifa sifatida belgilangan [4].

Agroekologik yondashuv barqaror qishloq xo'jaligini tadqiq etishdagi asosiy ilmiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. M. Altieri agroekologiyani qishloq xo'jaligi tizimlarida ekologik tamoyillarni qo'llashga asoslangan ilmiy konsepsiya sifatida tavsiflab, bioxilma-xillikni saqlash, tuproq unumdorligini oshirish va tashqi resurslarga qaramlikni kamaytirish orqali uzoq muddatli barqarorlikka erishish mumkinligini ta'kidlaydi [5]. S. Gliessman esa agroekologik tizimlarning samaradorligini nafaqat ekologik mezonlar, balki iqtisodiy va ijtimoiy omillar asosida ham baholash zarurligini asoslab bergan [6]. Olimning fikricha, agroekotizimlarning barqarorligi tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, mahalliy bilimlardan samarali foydalanish va ijtimoiy adolat tamoyillarining ta'minlanishi bilan uzviy bog'liqdir.

Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv tarafdorlari esa barqaror qishloq xo'jaligini, avvalo, iqtisodiy samaradorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi farovonligini ta'minlash nuqtai nazaridan baholaydilar. Xususan, Reijntjes, Haverkort va Waters-Bayer tadqiqotlarida barqaror qishloq xo'jaligi fermer xo'jaliklarining iqtisodiy barqarorligini saqlash, daromadlarni oshirish va qishloq aholisi turmush darajasini yaxshilash bilan bog'liq jarayon sifatida talqin etilgan [12]. FAO ekspertlari ham qishloq xo'jaligi barqarorligini baholashda iqtisodiy samaradorlik, ekologik xavfsizlik va ijtimoiy adolat mezonlarining o'zaro uyg'unligini ta'minlash zarurligini ta'kidlaydilar [13].

O'zbekistonlik olimlar tomonidan ham yashil iqtisodiyot va agrar tarmoqning barqaror rivojlanish masalalari keng tadqiq etilmoqda. Jumladan, A. Vahobov va N. Jumaev yashil iqtisodiyotning nazariy hamda institutsional asoslarini o'rgangan bo'lsalar [14], Sh. Mustafakulov mamlakatda yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy



mexanizmlari va resurs tejamkor texnologiyalarni joriy etish masalalarini tadqiq etgan [15]. Ushbu tadqiqotlarda agrar sohaning ekologik va iqtisodiy samaradorligini oshirish masalalari yoritilgan bo'lsa-da, agroekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni yagona konseptual model doirasida integratsiyalash masalasi yetarli darajada ochib berilmagan.

Adabiyotlar tahlili natijalari shuni ko'rsatadiki, mavjud ilmiy tadqiqotlarda yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va barqaror qishloq xo'jaligi masalalari keng yoritilgan bo'lsa-da, agroekologik hamda ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning o'zaro bog'liqligini yagona nazariy-metodologik tizim asosida izohlovchi integratsiyalashgan yondashuv yetarli darajada shakllanmagan. Shu sababli yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish hamda agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni integratsiyalashgan model asosida tadqiq etish dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqotda yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning nazariy-metodologik asoslarini aniqlash hamda agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni integratsiyalashning konseptual modelini ishlab chiqish maqsad qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi tizimli yondashuv, qiyosiy tahlil, ilmiy abstraksiya, induksiya va deduksiya, kontent-tahlil hamda sintez usullarining uyg'unlashuviga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish va agroekologiya sohasidagi mahalliy hamda xorijiy ilmiy manbalar o'rganildi. Shuningdek, agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi nazariy jihatdan tahlil qilindi.

Olingan natijalarni umumlashtirish asosida barqaror qishloq xo'jaligini baholash va rivojlantirishning integratsiyalashgan konseptual modeli shakllantirildi.

TAHLILLAR VA NATIJALAR

Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarning o'zaro uyg'unligini ta'minlash bilan bevosita bog'liqdir. Ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur masalani tadqiq etishda asosan agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar qo'llaniladi. Biroq mavjud tadqiqotlarning aksariyatida ushbu yondashuvlar alohida ko'rib chiqilgan bo'lib, ularning o'zaro integratsiyalashuv mexanizmlari yetarli darajada yoritilmagan. Shu sababli barqaror qishloq xo'jaligini ta'minlashning nazariy asoslarini chuqurroq ochib berish maqsadida mazkur yondashuvlarning qiyosiy tahlili amalga oshirildi.

Agroekologik yondashuv qishloq xo'jaligi tizimlarining ekologik muvozanatini saqlash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini tiklash va bioxilma-xillikni muhofaza qilishga qaratilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv esa ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholi bandligini kengaytirish va qishloq joylarida turmush darajasini yaxshilashga yo'naltirilgan. Mazkur yondashuvlarning asosiy farqli va umumiy jihatlari 1-jadvalda keltirilgan.

1-jadval
Agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning qiyosiy tavsifi¹

Ko'rsatkichlar	Agroekologik yondashuv	Ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv
Asosiy maqsad	Ekologik barqarorlikni ta'minlash	Iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy farovonlikni oshirish
Asosiy obyekt	Agroekotizimlar	Fermer xo'jaliklari va qishloq aholisi
Bosh mezonlar	Bioxilma-xillik, tuproq sifati, suv tejamkorligi	Daromad, mehnat unumdorligi, bandlik
Afzalliklari	Atrof-muhitni muhofaza qilish	Iqtisodiy o'sishni ta'minlash
Cheklavlari	Iqtisodiy natijalarni yetarli hisobga olmaslik	Ekologik ta'sirlarni to'liq baholamaslik


1-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, agroekologik yondashuvning asosiy afzalligi ekologik barqarorlikni ta'minlashdan iborat bo'lsa, uning cheklangan jihati iqtisodiy natijalarni yetarli darajada hisobga olmasligidadir. Aksincha, ijtimoiy-iqtisodiy yondashuv iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy farovonlikka ustuvor ahamiyat beradi, biroq ekologik omillarni kompleks baholash imkoniyati nisbatan cheklangan. Shu sababli qishloq xo'jaligini uzoq muddatli barqaror rivojlantirish uchun ushbu yondashuvlarni yagona metodologik tizimga birlashtirish zarurati yuzaga keladi.

1 Muallif ishlanmasi



Xalqaro tashkilotlar tomonidan e'lon qilingan ma'lumotlar ham qishloq xo'jaligida integratsiyalashgan yondashuvlarning ahamiyatini tasdiqlaydi. Xususan, FAO ma'lumotlariga ko'ra, agroozuq-ovqat tizimlari global issiqxona gazlari chiqindilarining qariyb uchdan bir qismini shakllantirmoqda. Shu bilan birga, yer va suv resurslarining degradatsiyasi, iqlim o'zgarishi ta'sirining kuchayishi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash zarurati agrar tarmoqda ekologik va iqtisodiy manfaatlarni uyg'unlashtirishni talab qilmoqda. Mazkur holat barqaror qishloq xo'jaligini baholashda faqat bitta yondashuvdan foydalanish yetarli emasligini ko'rsatadi.

Tadqiqot natijalari asosida agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning integratsiyasiga asoslangan konseptual model ishlab chiqildi. Mazkur modelda barqaror qishloq xo'jaligi tizimi tashqi muhit omillari, agroekologik tamoyillar, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish mexanizmlari va boshqaruv qarorlarining o'zaro ta'siri natijasida shakllanuvchi murakkab tizim sifatida talqin etiladi (1-rasm).



1-rasm. Yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlar integratsiyasiga asoslangan konseptual modeli²

Taklif etilgan konseptual modelga muvofiq, barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning markazida agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy tizimlarning o'zaro integratsiyasi turadi. Agroekologik blok tarkibiga bioxilma-xillikni saqlash, tuproq unumdorligini oshirish, suv resurslaridan oqilona foydalanish, agroekotizimlar barqarorligini ta'minlash va ekologik xavflarni kamaytirish kabi omillar kiritilgan. Ijtimoiy-iqtisodiy blok esa qishloq aholisi bandligi, oziq-ovqat xavfsizligi, fermer xo'jaliklari daromadlari, mehnat unumdorligi hamda hududiy rivojlanish ko'rsatkichlarini o'z ichiga oladi.

Modelning muhim jihati shundaki, unda ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy natijalar alohida emas, balki yagona tizim doirasida baholanadi. Bunda ekologik barqarorlik tabiiy resurslarning qayta tiklanishini ta'minlaydi,

2 Muallif ishlanmasi



iqtisodiy samaradorlik ishlab chiqarish rentabelligi va raqobatbardoshlikni oshiradi, ijtimoiy inklyuzivlik esa aholi farovonligi va oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlaydi. Ushbu uch komponentning uyg'unlashuvi natijasida barqaror qishloq xo'jaligi rivojlanishining sinergetik samarasi yuzaga keladi.

Tadqiqot davomida amalga oshirilgan nazariy tahlillar natijasida barqaror qishloq xo'jaligini baholashning integratsiyalashgan tizimi uchta asosiy mezonga tayangan holda shakllantirildi: ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy inklyuzivlik. Ekologik barqarorlik yer va suv resurslarini muhofaza qilish, bioxilma-xillikni saqlash hamda ekologik yuklamani kamaytirish ko'rsatkichlari orqali baholanadi. Iqtisodiy samaradorlik daromadlilik, mehnat unumdorligi va resurslardan foydalanish samaradorligi bilan tavsiflansa, ijtimoiy inklyuzivlik bandlik darajasi, oziq-ovqat xavfsizligi va aholi turmush sifati ko'rsatkichlari orqali ifodalanadi.

Shunday qilib, olib borilgan tahlillar natijalari yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirish uchun agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarni alohida emas, balki o'zaro bog'liq hamda bir-birini to'ldiruvchi elementlar sifatida qo'llash zarurligini ko'rsatdi. Taklif etilgan integratsiyalashgan konseptual model qishloq xo'jaligini rivojlantirishning nazariy asoslarini takomillashtirish, ekologik xavflarni kamaytirish, resurslardan samarali foydalanish va qishloq aholisi farovonligini oshirishga xizmat qiluvchi metodologik platforma vazifasini bajaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalari yashil iqtisodiyot sharoitida qishloq xo'jaligini rivojlantirish masalasi ekologik, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni alohida-alohida emas, balki o'zaro bog'liq yagona tizim sifatida ko'rib chiqishni talab etishini ko'rsatdi. O'tkazilgan adabiyotlar tahlili agroekologik yondashuvning tabiiy resurslarni muhofaza qilish va agroekotizimlar barqarorligini ta'minlashdagi ahamiyatini, ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvning esa oziq-ovqat xavfsizligi, iqtisodiy samaradorlik va aholi farovonligini oshirishdagi rolini tasdiqladi. Shu bilan birga, ushbu yondashuvlarning alohida qo'llanilishi qishloq xo'jaligi rivojlanishining barcha jihatlarini to'liq qamrab olish imkonini bermasligi aniqlandi.

Tadqiqot davomida agroekologik va ijtimoiy-iqtisodiy yondashuvlarning o'zaro bog'liqligi nazariy jihatdan asoslandi hamda ularni yagona metodologik platforma doirasida birlashtiruvchi konseptual model taklif etildi. Mazkur model qishloq xo'jaligida ekologik xavfsizlikni ta'minlash, resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va qishloq aholisi farovonligini yuksaltirish maqsadlarini o'zaro uyg'unlashtirish imkonini beradi. Natijada barqaror qishloq xo'jaligini baholashda ko'p omilli va kompleks yondashuvdan foydalanish zarurligi ilmiy jihatdan asoslandi.

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

Qishloq xo'jaligini rivojlantirish bo'yicha strategik dasturlar va tarmoq siyosatini ishlab chiqishda ekologik, iqtisodiy hamda ijtimoiy ko'rsatkichlarni o'zida mujassamlashtirgan integratsiyalashgan baholash tizimini joriy etish.

Agrar tarmoqda qarorlar qabul qilish jarayonida agroekotizimlar holati, resurslardan foydalanish samaradorligi va ijtimoiy natijalarni kompleks monitoring qilish mexanizmlarini takomillashtirish.

Suv va yer resurslaridan oqilona foydalanishga qaratilgan innovatsion hamda resurs tejankor texnologiyalarni keng joriy etish orqali ekologik va iqtisodiy samaradorlik o'rtasidagi muvozanatni mustahkamlash.

Barqaror qishloq xo'jaligini baholash bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda ekologik barqarorlik, iqtisodiy samaradorlik va ijtimoiy inklyuzivlik ko'rsatkichlarini yagona tizim asosida baholash metodikalarini ishlab chiqish va takomillashtirish.

Yashil iqtisodiyot tamoyillarini agrar tarmoqda keng qo'llash maqsadida davlat, ilmiy muassasalar, fermer xo'jaliklari va fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish.

Umuman olganda, tadqiqotda taklif etilgan nazariy-metodologik yondashuv yashil iqtisodiyot sharoitida barqaror qishloq xo'jaligini rivojlantirishning ilmiy asoslarini boyitadi hamda ushbu yo'nalishda amalga oshiriladigan amaliy chora-tadbirlar samaradorligini oshirish uchun metodologik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son "2030-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston Respublikasining 'yashil iqtisodiyot'ga o'tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/6294479>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 4-oktabrdagi PQ-4477-son "2019–2030-yillarda O'zbekiston Respublikasining 'yashil iqtisodiyot'ga o'tish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori [Elektron resurs]. – URL: <https://lex.uz/docs/4539502>



3. Pearce D., Markandya A., Barbier E. Blueprint for a Green Economy. – London: Earthscan Publications Ltd., 1989. – 192 p.
4. United Nations. Transforming our World: The 2030 Agenda for Sustainable Development. – New York: United Nations, 2015. – 41 p.
5. Altieri M. A. Agroecology: The Science of Sustainable Agriculture. – 2nd ed. – Boca Raton: CRC Press, 2018. – 448 p.
6. Gliessman S. R. Agroecology: The Ecology of Sustainable Food Systems. – 3rd ed. – Boca Raton: CRC Press, 2015. – 405 p.
7. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Greenhouse Gas Emissions from Agrifood Systems: Global, Regional and Country Trends, 2001–2023 [Elektron resurs]. – URL: <https://www.fao.org/statistics/highlights-archive/highlights-detail/greenhouse-gas-emissions-from-agrifood-systems.-global--regional-and-country-trends--2001-2023/en>
8. United Nations Environment Programme (UNEP). About Green Economy [Elektron resurs]. – URL: <https://www.unep.org/explore-topics/green-economy/about-green-economy>
9. World Bank. Recipe for a Livable Planet: Achieving Net Zero Emissions in the Agrifood System. – Washington, D.C.: World Bank, 2024. – 260 p.
10. United Nations Environment Programme (UNEP). Towards a Green Economy: Pathways to Sustainable Development and Poverty Eradication. – Nairobi: UNEP, 2011. – 624 p.
11. World Commission on Environment and Development. Our Common Future. – Oxford: Oxford University Press, 1987. – 383 p.
12. Reijntjes C., Haverkort B., Waters-Bayer A. Farming for the Future: An Introduction to Low-External-Input and Sustainable Agriculture. – London: Macmillan Education Ltd., 1992. – 250 p.
13. Food and Agriculture Organization of the United Nations (FAO). Building a Common Vision for Sustainable Food and Agriculture: Principles and Approaches. – Rome: FAO, 2014. – 52 p.
14. Vahobov A. V., Jumayev N. X. Yashil iqtisodiyot nazariyasi va amaliyoti. – Toshkent: IQTISOD-MOLIYA, 2021. – 312 b.
15. Mustafakulov Sh. I. O'zbekistonda yashil iqtisodiyotga o'tishning iqtisodiy mexanizmlari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2023. – 284 b.
16. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Qishloq xo'jaligi statistikasi bo'yicha rasmiy ma'lumotlar [Elektron resurs]. – URL: <https://stat.uz>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Hasan MAQSUDOV

2026. № 6/5

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin. Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>